

O‘ZBEK MODELINING YURTIMIZ TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Kamolov G‘anisher

Navoiy davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mustaqilligimizning ilk yillarida mamlakatimiz taraqqiyotining ustovor yo‘nalishlaridan bo‘lgan, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojida xizmat qilgan omillardan biri O‘zbek modeli edi. Ushbu rivojlanish strategiyasi yani chet el tomonidan O‘zbek modeli deb nom berilgan strategiyamiz birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov tomonidan, mustaqilligimizning ilk yillarida respublikamizning taraqqiyot yo‘li sifatida belgilandi. Uning maqsad vazifalari chet eldagi kabi inqilobiy masalan shok terapiyasi kabi emas, balki bosqichma bosqich etib belgilandi. Bunda O‘zbek modeli beshta ustuvor maqsadni qamrab oldi. Ushbu maqolada O‘zbek modelining yurtimiz taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek modeli, iqtisodiyot, taraqqiyot strategiyasi, Qonun ustuvorligi, investitsiyalar, kichik biznes.

Kirish

O‘zbekiston mustaqillikga erishgach sobiq ittifoq tuzumidan qolgan rejalashtirilgan iqtisodiyot o‘zini oqlamasligini va jahon tajribasida uzoq yillar davomida qo‘llangan tajriba va sinovidan o‘tgan iqtisodiy yo‘lni o‘rganib chiqdi. Bozor iqtisodiyoti deb atalgan yo‘l mulkchilik jamiyatini shakllanishining asosiy omili va iqtisodiy taraqqiyotning poydevorlaridan biri hisoblanadi. Bugungi ilg‘or rivojlanayotgan davrda bu kabi g‘oyalarni hayotga tadbiq etilishi zamon talabi edi. O‘zbek modeli atamasi mustaqilligimizning ilk yillarida mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy hayotida olib borilgan islohotlarning asosiy yo‘l ko‘rsatuvchisi bo‘lib xizmat qildi. Ushbu maqolada iqtisodiy va ijtimoiy hayotimizga yo‘naltirilgan, sohalardagi vazifalari haqida shuningdek rivojlanishga va xalqimizning yangi jamiyat qurishidagi beqiyos o‘rni haqida fikr yuritamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzu bo‘yicha O‘zbekistonda

ko‘pgina olimlar izlanishlar olib borishgan. Xususan O‘zbek modeli atamasi yurtimiz mustaqilligini qo‘lga kiritgan ilk davrda shakllandi va birinchi prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bir qancha nutqlarda va kitoblarda to‘xtalib o‘tildi. Bu yo‘nalish bo‘yicha birinchi prezidentimizning O‘zbekiston: milliy Istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura nomli kitobida ham bozor iqtisodiyoti haqida to‘xtalib o‘tgan. Bundan tashqari ko‘pgina o‘zbek iqtisodchi olimlar ham bu mavzuda o‘z ilmiy asarlarini yozgan. Ushbu mavzu davr talabi bo‘lganligi bois hozirgi kunda ham o‘rganilmoqda, mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyoti yo‘nalishini yoritgan olimlar T. Ergashev, M. Rasulov, S. G‘ulomov, M. Sharifxo‘jayevlarning asarlari vujudga keldi. Bu kitoblarda mualliflar iqtisodiyotimizning o‘tish davridagi masalalarini va undagi qilingan ishlar haqida yozganlar. Ularning izlanishlari iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatni rivojlantirish usullari va investitsiya kiritish, aholini iqtisodiy ahvolini yuksaltirish haqida fikr yuritishgan.

Mamlakatimiz mustaqil bo‘lgan ilk kunlardan o‘zining yangi taraqqiyot yo‘lini belgilashi zarur edi. Bunday vaziyatda Birinchi prezidentimiz Islom Karimov tomonidan O‘zbekistonni har tomonlama rivojlantirishni istiqbolli maqsadlari ko‘rib chiqildi. Bunda chet el tajribasidan o‘tgan loyihalar ham bir qator ko‘rib chiqildi. Ammo tabiiy sharoit ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holatda, ular qo‘llagan yo‘llarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilib bo‘lmas edi. Mamlakatimiz iqtisodiy qudratining o‘sishi, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga, ayniqsa, qishloq joylarda bunga erishish, avvalambor, mamlakatimiz hududlarining kompleks va izchil rivojlanishi bilan belgilanishini yaxshi tushunamiz. Bu- bizning ham yaqin, ham uzoq muddatli istiqboldagi vazifamizdir.¹ Sharoitimiz va xalqimizning ananalaridan kelib chiqilgan va ko‘p bora o‘ylangan, shuningdek bosqichma bosqich

¹ O‘zbekiston respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev Asarlari. 1-tom, 72-72-betlar. T. 2019-yil. O‘zbekiston.

hayotga tadbiiq etishga yani revolyutsiyon uslub bilan emas evolyutsiyon uslubda, davlat va jamiyatni rivojlantirishning Taraqqiyot yo‘li ishlab chiqildi. Ushbu yo‘lni g‘arb olimlari va iqtisodchilari keyinchalik O‘zbek modeli deb atashdi. O‘zbek modeli tuzilishiga ko‘ra beshta ustuvor vazifani qamrab olgandi. Bular 1-Davlat bosh islohotchi, 2-Qonunnig ustuvorligi, 3-Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, 4-Kuchli ijtimoiy himoya, 5-Bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o‘tish edi. Bu maqsadlarning barisi yurtimizni ijtimoiy va siyosiy rivojlantirishning asosiy vazifalari etib belgilandi.

O‘zbekiston tanlab olgan yo‘l- respublika va uning xalqining manfaatlariga nihoyatda mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir.²

Bungacha bilamizki rejalashtirklgan iqtisodiyot asosida yashagan yurtimiz tadbirkorlik va erkin mulkdorlik tushunchalari begona edi. Mustaqillikning ilk kunlaridan xalqimiz mulk egasi bo‘lish kabi bilimlarni o‘zlashtira boshladi. Bu kabi islohotlar mamlakatimizni ichki bozorini rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

Mazkur model iqtisodiyotni mafkuradan holiligi, uning siyosatdan ustunligi, qonun ustuvorligi, davlatning bosh islohotchi bo‘lishi, islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirishi, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish kabi muhim tamoyillarni o‘z ichiga oladi.³

Chunki sobiq ittifoq davrida iqtisodiyot ham mafkura bilan sug‘orilib undagi real raqamlar ko‘rsatgichlar partiya tarafidan mamuriy buyruqbozlik yo‘li bilan qilinardi bu esa o‘z navbatida mamlakat ishlab chiqarishidagi soha va yo‘nalishlarning mahsulot bo‘yicha sifat ko‘rsatgichlarini pasaytirib mahsulotni

² Ислон каримов. Биздан озод ва обод ватан қолсин. -Т. Шарқ. 1996., 3-бет.

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг 2010 йил 12 ноябрдаги қўшма мажлисидаги —Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси мавзусидаги маърузаси. -Т.Ўзбекистон, 2010., 4-бет.

sifatini tushirdi. Mana shular hisobga olgan holatda dunyo tajribasida katta samaradorlikga erishgan va o'zini oqlagan tizim Bozor iqtisodiyoti yurtimizda hayotga tadbiq etildi. Xo'sh bu nimalarni o'z ichiga olardi? Birinchidan mamlakatimiz mustaqil bo'lgandan so'ng sobiq ittifoq respublikalari bilan bog'langan sanoat va mahsulot qaramligidan chiqish o'z kuchimizga va resruslarimizga tayangan holatda iqtisodiyotni ko'tarish zarur edi. Davlat va unga bo'ysunuvchi korxona tashkilotlarni bir qismini xususiylashtirish yoki aksiyadorlik korxonalariga aylantirgan holatda aholini mulkchilik madaniyatini oshirish va ularni mulkdor qilish.

Bu kabi islohotlar natijasida ko'plab korxonlar undagi ishlayotgan ishchilarga aksiya sifatida bo'lib berildi. Islohotlar zamirida bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o'tishning poydevori paydo bo'lmoqda edi. Bozor iqtisodiyoti atamasi ilk marotaba g'arb adabiyotida uchraydi uning asosini mulkchilikka asoslangan iqtisodiyot va xususiy sektorlar tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyoti vaqtida har bir hududlar o'zlarining erkin ishlab chiqarishlaridan avvalo ushbu hududning aholisi manfaatdor bo'lishi zarur ⁴. Bozor iqtisodiyoti boshlangan pallada yurtimizda qilingan ishlar aholini ijtimoiy himoya qilgan holatda ularni yangi iqtisodiy munosabatga ko'niktirish lozim edi. Bunda qilinadigan asosiy ishlardan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarib xususiy mulk shaklini shakllantirish edi ushbu ishlarning birinchi bosqichi 1992-1993-yillar edi. Asosan bu yillarda kichik kichik davlat tasarrufidagi mulk, korxona, va ko'chmas mulklar aukcion orqali sotilib fuqarolar mulkdor bo'lishdi. Mulkning egasi bo'lgan fuqarolar yoki aksiyadorlik korxonalarida o'sish va chet sarmoyasi hajmi ham ortdi. Qonun ustuvorligi bo'yicha ham iqtisodga doir prezident farmonlari va oliy majlis qarorlari muhim ahamiyatga ega. Misol uchun ko'pchilik davlat uylari o'sha yashab turgan aholiga imtiyozli ravishda arzon narhlarda sotildi yoki

³ T. Ergashev. Bozor iqtisodiyoti. T.O'qituvchi. 2005. 181-bet.

tekinga berildi.

Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, kichik biznesni rivojlantirish samarasida O‘zbekistonda yangi ijtimoiy qatlam mulkdorlar paydo bo‘ldi. Qimmatli qog‘ozlar va kuchmas mulk bozori kabi yangi bozorlar paydo bo‘lishi jarayoni boshlandi.⁵ Mamlakatimizda o‘tkazilgan islohot ilk yillarda o‘z samarasini berdi aholi mulkdor bo‘lish hissini tuydi, o‘zlarining uylari kichik bizneslari shakllandi bu esa o‘z o‘rnida xususiy sektorni shakllantirdi. Davlatning ajratgan imtiyozlari tufayli keyingi davrda esa birinchi o‘n yillikda tadbirkorlar soni oshib bordi. Birinchi o‘rinda Bozor iqtisodining asosiy shartlaridan yurtimizda iqtisodiyotni magkuradan holi etish edi. Uning keyingi rivojlanishi uchun mafkurasiz iqtisodiyot bu demokratik bozor o‘zgarishlarini asosi bo‘lib xizmat qilishi lozim edi. Bilamizki iqtisodiyot qancha liberal bo‘lsa sarmoya va tadbirkorlik jabhalari rivojlanadi. Uning siyosatdan ustunligi ham shuki avvalo bu xalq manfaatini ko‘zlaganligi davlatning keyingi taraqqiyot yo‘lini ravon va barqaror qiladigan asosiy omil. Birinchi navbatda iqtisodiy asosni bazasini barpo etish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish ilg‘or jamiyat qurishning eng muhim shartidir.⁶ Sobiq sho‘rolar iqtisodiyoti avvaldan rejalashtirilgan iqtisodiyot edi va unda raqobat muhiti bo‘lmagan. Shu sababdan yetarlicha aholining zarurati uchun mahsulot yetqazib berolmasdi. Keyinchalik bu tuzum qayta qurish davrida o‘zini oqlamadi shu sababli mustaqillikga erishgan ilk kunlarimizdan boshlab birinchi prezidentimiz Islom Karimov yangi iqtisodiy tamoyillarni hayotga tadbıq etdi. Iqtisodiyot bu bilan birdaniga o‘sgani yo‘q buni anglagan holatda o‘zbek modelida bosqichma bosqich atamasi keltirilganini o‘zi masalani naqadar oqılona va xalqchil yechim bilan o‘ylanganligini ko‘rsatadi. Chunki bozor iqtisodiyoti qadimda xalqimiz tomonidan ishlatilgan bo‘lsada

⁵ Н.Тўхлиев Тараққиётнинг ўзбек модели. Т.Ўзбекистон:2012.-22 бет.

⁶ Ислон Каримов. Асарлар, 1-жилд, Т., «Ўзбекистон», 1996, 301-бет.

o'tgan sho'rolar davrida bu rejalu iqtisodiyotga o'rganib qolingandi fabrika va shirkatlar plan bo'yicha mahsulot bergandi.

Kirib kelgan yangi g'oyalar vaziyatni yetarli baholanishi qo'shni davlatlardagi kabi import mahsulot evaziga emas ichki imkoniyatlardan samarali foydalanildi. Har yili millionlab tonna paxta yetishtiriladigan o'lkada, hatto durustroq paypoq ishlab chiqaradigan fabrika ham qurilmagan, shoir aytganidek daryo bo'yida qultum suvga zor edik!⁷ Bundan yaqqol ko'rish mumkuni respublikamiz iqtisodiyoti bir taraflamadan ko'p ukkladli iqtisodiyotga o'tgan paytlar bu bozor iqtisodiyoti kirib kelgan payt biznes va investitsiyaviy muhitning rivojlanishi natijasida bir qator qo'shma korxonlar qurilishi ana islohotlarning mevasi edi. Bu kabi qo'shma korxonlar ichida yurtimiz odamlariga eng kerakli bo'lgan transport sohasini rivojlantirgan zavod yani O'zbekiston va Janubiy Koreyaning Daewoo motors ko'rxonasi ishtirokidagi Uz Daewoo zavodi zamon talabiga mos tejamkor avtomobillar bilan xalqimizni uzog'ini yaqin og'irini esa yengil qildi. Avtomobil sanoati sohasida hozir 18 mingdan ortiq kishi ish bilan bandligi alohida ta'kidlash o'rinlidir.⁸ Statistika ma'lumotlariga ko'ra, «O'zavtosanoat» kompaniyasi tizimiga kiruvchi korxonalarda 2011-yilning o'zida 1,4 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratilgan. Investisiya dasturi doirasida mashinasozlarimiz avtomobillar uchun zarur ko'plab detallarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish ustida ish olib borishmoqda. Iqtisodiyotning bozor sharoitida o'sish suratiga nazar tashlaydigan bo'lsak 1990-yilgi va 2010-yillardagi umumiy foizda 17 foizdan 24 foizga ko'tarilgan boshqa jablahar ham shu kabi o'sishni tashkil etgan qishloq xo'jaligi nisbatan foizda kamaygan 33 foizdan 17 foizgacha

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-Иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2013 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларига Бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасидаги «Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз

Тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади» мавзусидаги маърузасини

Ўрганиш бўйича Ўқув-услугий мажмуа. – Тошкент: Иқтисодиёт. – 2011. 39-42 бетлар

⁸ Н.Тўхлиев Тараққиётнинг ўзбек модели. Т.Ўзбекистон:2012.108-бет

kamaygan buning sababi paxta monokulturasiga chek qo'yilib aholi iste'moli uchun bug'doy va boshqa ozuqa ekinlarining ekilishi oziq ovqat xavfsizligining ta'minlanishi edi. Ushbu qilingan va hozirda ham o'zining hayotimizda o'rniga ega bo'lgan bozor iqtisodiyotining omillaridir. Barcha qilingan bu kabi iqtisodiy islohotlar yillar davomida respublikamizni ishlab chiqarish, sanoat sohalarida o'sishini ta'minladi.

Hozirda dunyoning yetakchi kompaniyalari yurtimizda qo'shma korxonlar tashkil qilib o'zlarining mahsulotlarini ishlab chiqarishmoqda bu mustaqillikning ilk yillarida tanlangan o'zbek modelining samarasi o'laroq xalqimizga xizmat qilmoqda. Yangi usullarni amalda joriy qilib, bozor iqtisodiyoti tamoillari asosida yashay boshlagan joylarda ishlash ham qiziqarli, hamda daromadli va maoshlar ham ortib boryapti.⁹ O'tkazilgan iqtisodiy islohotlar fuqarolarimizni ijtimoiy himoya qilish sohasini ham chetlab o'tmadi. Ijtimoiy himoya sohasida aholiga olis hududlarga poliklinika, maktablar, qishloq vrachlik punktlari va shu kabi ularning kundalik ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan xizmatlar davlat tomonidan qurib, borlari esa kapital rekonstruksiya qilinib moddiy texnik bazasi yangilab berildi. Ushbu ishlar uchun davlat byudjetidan mablag'lar har yili dasturlar asosida berib kelinadi. O'zbek modeli negizida xalqimizni uzoq yillarga ijtimoiy himoya qilish va yangi zamon talablariga moslashishini ta'minlagan strategiya maqsad qilib olingan va bu strategiya o'z mevalarini berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada mustaqillikning ilk yillarida mamlakatimiz taraqqiyotining muhim strategiyasi O'zbek modeli atamasi berilgan rivojlanish yo'li haqida bordi. Bunda o'tgan yillar mobaynida rejali iqtisodiyotdan sog'lom raqobat va erkin bozor munosabatlari, mulkchilikning yangi bosqichi bugungi kunda sohaning erishgan yutuqlari bo'yicha. Iqtisodiyot va unga tutash sanotdagi o'zgarishlar, kapital kirib kelishi, ijtimoiy sohadagi

⁹ Ислом каримов. Биздан озод ва обод ватан қолсин. -Т.Шарқ. 1996.,27-бет

o‘zgarishlarni taqqoslash. Qilingan va qilinayotgan rivojlanish islohotlarini ularning ahamiyatini biz tarixiy metodologik, ijtimoiy -siyosiy, statistik metodologik usullar bilan tadiq qilsak bo‘ladi.

Xulosa. Shuni ta’kidlash lozimki yurtimiz mustaqillikka erishgan ilk yillarda respublikamizni rivojlantirishning eng maqbul va jahon sinovidan o‘tgan rivojlanish strategiyasi bo‘lgan O‘zbek modeli o‘zini iqtisodiy va ijtimoiy sohani keng qamrab olganligi bilan katta qiziqishlarga sabab bo‘ldi. Nafaqat so‘zda balki amalda o‘zini ko‘rsatgan davlat siyosati va qonunchilik sohalari bo‘yicha qilingan dasturlar tashqi siyosatdagi o‘zaro hamkorlik millatlararo totuvlik kabi omillarni hayotga tatbiq etdi. Asosiy maqsadi respublikamizni iqtisodiy barqaror va ijtimoiy to‘kis bo‘lishini ko‘zda tutgan strategiya sifatida tariximizda katta o‘rin tutgan rivojlanish modeli sifayida tariximizdan joy oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev asarlari 1-tom.T. O‘zbekiston. 2019.
2. Ислон каримов. Биздан озод ва обод ватан қолсин.-Т.Шарқ. 1996.,
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг 2010 йил 12 ноябрдаги қўшма мажлисидаги —Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси|| мавзусидаги маърузаси. -Т.Ўзбекистон, 2010.
4. Ислон Каримов. Асарлар, 1-жилд, Т., «Ўзбекистон», 1996,
5. Н.Тўхлиев Тараққиётнинг ўзбек модели. Т.Ўзбекистон:2012.
- 6.Т. Ergashev. Bozor iqtisodiyoti. Т.О‘qituvchi. 2005.